

VORISLIK HUQUQINING MAZMUN VA MOHIYATI



VORISLIK HUQUQINING MAZMUN VA MOHIYATI

Vorislik huquqi fuqarolarning xususiy mulk huquqi bilan chambarchas bog'liqdir. Xususiy mulk egasining o'z mulkiga nisbatan erkinligi, manfaatlari va huquqlari muhofazasi Konstitusiyamiz va milliy qonunchiligidan mustahkamlab qo'yilgan. Jumladan, asosiy Qonunimizning 36-moddasida har bir shaxs mulkdor bo'lishga haqliligi, bankka qo'yilgan omonatlar sir tutilishi va meros huquqi kafolatlangan bo'lsa, 53-moddasida xususiy mulk boshqa mulk shakllari kabi daxlsiz va davlat himoyasida ekanligi, 54-moddasida esa mulkdorning o'z mulkiga o'z xohishicha egalik qilish, undan foydalanish va tasarruf qilish huquqi mustahkamlanganligi belgilangan.

Shuningdek, amaldagi Fuqarolik kodeksi me'yorlariga muvofiq, vafot etgan fuqaroning mol-mulki yoki mulkka bo'lган huquq va majburiyatlari faqat ikki holatda qonun bo'yicha vorislariga o'tadi. Birinchidan, fuqaro mulkining o'zi vafot etgandan keyingi taqdirini oldindan belgilagan, ya'ni vasiyatnama qoldirgan hollarda vasiyatnama asosida uning mol-mulki yoki mulkka bo'lган huquq va majburiyatlari qonun bo'yicha vorislariga o'tishini ko'zda tutsa, ikkinchidan, vafot etgan fuqaro vasiyatnama qoldirmagan hol bilan bog'liqdir.

Fuqarolik kodeksining 1112-moddasiga ko'ra, vorislik vasiyat va qonun bo'yicha amalga oshiriladi. Qonun bo'yicha vorislik vasiyat mavjud bo'lmasa yoxud butun merosning taqdirini belgilamasa, shuningdek ushbu Kodeksda belgilangan boshqa hollarda amalga oshiriladi.

Ushbu kodeksning 1113-moddasiga ko'ra, meros ochilgan paytda meros qoldiruvchiga tegishli bo'lган, uning o'limidan keyin ham bekor bo'lmaydigan barcha huquq va majburiyatlar meros tarkibiga kiradi.

Meros qoldiruvchining shaxsi bilan chambarchas bog'liq bo'lган huquq va majburiyatlar:

yuridik shaxs hisoblangan tijorat tashkilotlari va boshqa tashkilotlarga a'zolik, ularda ishtirok etish huquqlari, agar qonun yoki shartnomada boshqa hol belgilangan bo'lmasa;

hayotga yoki sog'liqqa yetkazilgan zarar uchun undirish huquqi; aliment majburiyatları tufayli yuzaga kelgan huquqlar va majburiyatlar; mehnat va ijtimoiy ta'minot to'g'risidagi qonun hujjatlari asosida pensiya, nafaqa va

mumkin. Demak, qonun bo'yicha merosxo'rlar doirasiga asosan meros qoldiruvchi bilan qarindoshlik munosabatlarida bo'lgan va meros qoldiruvchining qaramog'ida bo'lgan mehnatga qobiliyatsiz shaxslar kirsa, vasiyat bo'yicha merosxo'rlarni tayinlash meros qoldiruvchining mutlaq huquqi hisoblanadi va faqatgina uning xohish-irodasi bilan erkin tanlanadi.

Amaldagi Fuqarolik kodeksida vasiyat bo'yicha vorislikning umumiyligi qoidalari belgilangan bo'lib, unga ko'ra, fuqaroning o'ziga tegishli mol-mulkni yoki bu mol-mulkka nisbatan huquqini vafot etgan taqdirda tasarruf etish xususidagi xohish-irodasi vasiyat deb e'tirof qilinadi. Vasiyatnoma shaxsan tuzilishi lozim. Vasiyatnomaning vakil orqali tuzilishiga yo'l qo'yilmaydi. Fuqaro o'zining barcha mol-mulkini yoki uning muayyan qismini qonun bo'yicha merosxo'rlar doirasiga kiramagan, shuningdek, kirmaydigan bir yoki bir necha shaxsga, shu bilan birga, yuridik shaxslarga, davlatga yoki fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlariga vasiyat qilishi mumkin.

Vasiyat qiluvchi qonun bo'yicha merosxo'rlardan bittasini, bir nechtasini yoki hammasini izoh bermagan holda merosdan mahrum qilishga haqli. Qonun bo'yicha merosxo'rni merosdan mahrum etish, agar vasiyatnomadan boshqa mazmun kelib chiqmasa, bu vasiyat qiluvchining taqdim etish huquqi bo'yicha vorislik qiladigan avlodlariga nisbatan tadbiq etilmaydi.

Meros qoldiruvchi har qanday mol-mulk to'g'risidagi farmoyishni o'z ichiga oladigan vasiyatnoma tuzishga haqli. Meros qoldiruvchi vasiyat qilayotgan paytida o'ziga tegishli bo'limgan mol-mulk to'g'risidagi farmoyishni o'z ichiga oladigan vasiyatnoma tuzishga haqli. Agar meros ochilgan paytga kelib, bunday mol-mulk unga tegishli bo'lib qolsa, tegishli farmoyish haqiqiy hisoblanadi.

Meros qoldiruvchi vasiyatnoma tuzilganidan keyin uni istagan paytda bekor qilish va o'zgartirish borasida erkin bo'lib, bunda bekor qilish yoki o'zgartirish sabablarini ko'rsatishga majbur emas.

Majburiy ulush olish huquqiga ega bo'lgan merosxo'r biron-bir asos bo'yicha merosdan oladigan hamma narsa, shu jumladan, oddiy uy jihozlari va ro'zg'or buyumlaridan iborat mol-mulkning qiymati ham, bunday merosxo'r foydasiga qilingan vasiyat majburiyatining qiymati ham majburiy ulushga qo'shiladi.

Merosdan majburiy ulush huquqiga ega bo'lgan merosxo'r uchun vasiyatnomada belgilangan har qanday cheklashlar va shartlar unga tegadigan merosning faqat majburiy ulushdan ortiqcha qismiga nisbatan haqiqiydir.

Surxondaryo viloyat sudi sudyasi Z.E.Mavlonov